

XORIJIY VALYUTA BOZORIDA TO'LOV TIZIMI JARAYONLARINI TEZKORLIGINI TA'MINLASH ORQALI UNING SAMARADORLIGIGA ERISHISH MEXANIZMLARI

Xodjayev Amirxon Akramovich

"Hamkorbank" ATB Bosh bank Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi boshlig'i
Bank-moliya akademiyasi, Bank ishi 2-guruh tinglovchisi

E-mail: amirhon.hodjayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada, mamlakatda tijorat banklari, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtaida xorijiy valyuta bozorida to'lov tizimi jarayonlarini tezkorligini ta'minlash orqali uning samaradorligiga erishish mexanizmlari o'rganilib, uni samarali tashkil etish tadqiq qilingan. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: to'lov tizimi, xorijiy valyuta bozori, tezkor to'lovlar, xorijiy valyuta, raqamlashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar, to'lovlar, SWIFT, tranzaksiya.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются механизмы достижения эффективности платежной системы на валютном рынке за счет обеспечения ее эффективности среди коммерческих банков, юридических лиц и индивидуальных предпринимателей в стране. На основании проведенных исследований сформированы выводы.

Ключевые слова: платежная система, валютный рынок, быстрые платежи, иностранная валюта, цифровизация, безналичный расчет, платежи, SWIFT, транзакция.

ABSTRACT

The article examines the mechanisms for achieving the efficiency of the payment system in the foreign exchange market by ensuring its efficiency among commercial banks, legal entities and individual entrepreneurs in the country. Based on the research conducted, conclusions were drawn.

Keywords: payment system, foreign exchange market, fast payments, foreign currency, digitalization, cashless payments, payments, SWIFT, transaction.

KIRISH

Xabaringiz bo'lganidek, Covid-19 pandemiyasi inqirozi butun dunyodagi insonlarning kundalik hayotining deyarli barcha jabxalariga ta'sir ko'rsatdi va jahon iqtisodiyotini noaniq poydevorga qo'ydi. Albatta to'lovlar sohasida ham

pandemianing oqibatlari iste'molchilarining ham, ishbilarmonlarning ham bir qator mavjud tendensiyalarini tezlashtirdi hamda transchegaraviy savdoni qayta ko'rib chiqish kabi yangi o'zgarishlarni o'z ichiga oldi. O'tgan bir yil davomida elektron tijorat, raqamli to'lovlar (shu jumladan kontaktsiz to'lovlar), tezkor to'lovlar va naqd pul ayirboshlash yo'nalishidagi o'zgarishlar sezilarli darajada o'zgardi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Umuman olganda, inqiroz yarim o'n yillikdagi o'zgarishlarni bir yildan kamroq vaqtga siqib chiqarmoqda va odatda sekin rivojlanadigan sohalarda, misol uchun, iqtisodiy modellar va to'lovlarning operatsion modellari ham o'zgarishlarga duch keldi.

Inqirozning ta'siri sektorlar yoki geografiyalar bo'yicha izchil bo'lмаган albatta. Eng ilg'or elektron tijorat sektorlaridan biri bo'lган sayohat va mehmonxona biznesi, ayniqsa qattiq zarba oldi va tiklanishning noaniq yo'liga duch keldi. Raqamlashtirishdan orqada qolgan xududlardagi to'lov provayderlari ko'p xollarda yangi sharoitda daromadlarni oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Asosiy qismda xorijiy valyutadagi to'lovlarni tezkorligini hamda uning shaffofligini ta'minlash yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot haqida ma'lumot keltirib o'tilgan.


MUHOKAMA VA NATIJALAR

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3945-sон 19.09.2018 yilgi "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga asosan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan. Ushbu chora-tadbirlarga asosan, mamlakatda milliy valyutadagi to'lov tizimlarini rivojlantirish, jumladan "Humo" to'lov tizimi 2019 yilning I-choragidan boshlab ishga tushirildi. "Humo" to'lov tizimi asosida 24/7 rejimda ishlaydigan kontaktsiz plastik kartalari ishlab chiqildi¹. Shu sababli mamlakatda emissiya qilingan bank kartalari hamda amalga oshirilgan to'lovlar keskin oshib borgan. Quyidagi jadvalda Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan statistikani ko'rishimiz mumkin²:


¹ <https://cbu.uz/oz/payment-systems/history/>

² <https://cbu.uz/oz/payment-systems/interbank-calculations/>

Муомаладаги банк карталари сони
1 январь холатига




Тўлов терминаллари орқали амалга оширилган миллий валютадаги транзакциялар суммаси



O'zbekiston Respublikasida to'lovlar sohasidagi munosabatlarni rivojlantirish maqsadida 2019 yil 01 noyabrda O'RQ-578-son bilan O'zbekiston Respublikasining

"To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" qonuni qabul qilindi hamda 2020 yil fevral oyidan kuchga kirdi. Qonunda, to'lov tizimini takomillashtirish, yangi mexanizmlarni joriy etish hamda to'lov tizimini tartibga solishdan iborat bo'lgan. Ushbu qonun mamlakatda milliy valyutadagi tezkor to'lovlar tizimini joriy etishga ko'makchi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2019 yil oxirida "Anor" nomli tezkor to'lov tizimi ishlab chiqildi hamda 2020 yil 18 fevraldan ishgaga tushirildi. Ushbu to'lov tizimi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasida real vaqt rejimida banklararo pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini berdi va 24/7 vaqt davomida (dam olish va bayram kunlari ham tanaffuslarsiz) ishlashi e'lon qilindi. Anor to'lov tizimining kuchli tomonlaridan bu 24/7 vaqt rejimidagi banklararo to'lovlarni amalga oshirish, pul mablag'larning harakatini tezkorligini ta'minlash va eng asosiysi mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatishning yangi bosqichi etib tan olindi³. Shu sababli mamlakatda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni hamda amalga oshirilgan to'lovlar keskin oshib borgan. Quyidagi jadvalda Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan statistikani ko'rishimiz mumkin:⁴

**Масофадан банк хизматларини кўрсатувчи
тизимлардан фойдаланувчиларнинг сони**
1 январь ҳолатига



³ <https://telegra.ph/Markazij-bank-Anor-tezkor-t%D1%9Elovlar-tizimini-tazhriba-tari%D2%9Basida-ishga-tushirdi-02-20>

⁴ <https://cbu.uz/oz/payment-systems/remote-banking-services/>

Yuqoridagilardan ko'rinib turibtiki, mamlakatda milliy valyutadagi to'lov tizimini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, tezkor to'lovlarni rivojlantirish, ularni shaffofligini ta'minlash, tranzaksiyalarni o'tkazishda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Ammo bu chora-tadbirlar yetarli emas deb tan olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hozirgi kunda nafaqat milliy valyutadagi to'lovlarni tezkorligini ta'minlash va ularni tartibga solish, balki xorijiy valyutadagi to'lovlarni ham tezkorligin ta'minlash hamda ularni tartibga solish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, Respublika bo'y lab xorijiy valyutadagi barcha to'lovlari mahalliy avtomatlashtirilgan bank tizimi bilan integrallashtirilgan SWIFT to'lov tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimning bir nechta noqulayliklari mavjud, ular quyidagilar:

1. Har bir tranzaksiya o'z manziliga yetib borish uchun kamida 2-3 soat vaqtini, xattoki 6-8 soatni ham tashkil etadi, so'ng ushbu tranzaksiya SWIFT to'lov tizimi orqali avtorizatsiya qilinadi. Oxir-oqibat, benefisiar, ya'ni yakuniy pul mablag'larini qabul qiluvchi tomonga yetib borishi uchun 1,5-2 bank ish kuni talab etiladi;

2. Tranzaksiyalarni o'tkazish uchun belgilangan bank xizmat xaqqi kamida 100 000,00 (Bir yuz ming) so'mni tashkil etadi, o'z o'rnida bu kichik va o'rta biznes sub'ektlariga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qimmat deb hisoblasak maqsadga muvofiq bo'ladi;

3. Tranzaksiyaning joriy holatini kuzatish imkoniyati mavjud emas, mijozlar odatda to'lovning holatini aniqlash maqsadida bankka tashrif buyurishadi;

4. Tranzaksiyalarni odatda bank ish kunlari soat 9:00 dan 17:00 gacha amalga oshirish imkoniyati mavjud;

5. Respublikadagi har bir tijorat banki SWIFT to'lov tizimiga bir yilda o'rtacha 50 000,00 (Ellik ming) Yevro miqdoridagi komission xizmatni to'lab berishi kerak bo'ladi. Hisob-kitob qiladigan bo'lsak, Respublikada 30 ta bank 50 000,00 (Ellik ming) Yevro dan komission to'lojni amalga oshirgan taqdirda, jami bo'lib 1 500 000,00 (Bir yarim million) Yevro miqdorida, so'mda esa 26.10.2021 dagi 1 Yevro 12 499,00 so'm kurs bo'yicha hisoblab olsak, 12,7 mldr. so'mni tashkil etadi. Albatta ushbu mablag'lar Respublika byudjetiga yoki mamlakatda faoliyat olib boradigan tijorat banklarining daromadiga qo'shilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblayman.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Respublikada fintex startapni yaratgan holda, xorijiy valyutadagi tezkor to'lov tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ushbu to'lov tizimi Respublika ichidagi barcha tijorat banklarini hamda

xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni birlashtirish imkoniyatini beradi. Xorijiy valyutadagi tezkor to'lov tizimini joriy etish quyidagi qulayliklarga ega bo'ladi:

1. Ergonomika - oson va qulay interfeys;
2. To'lovni amalga oshirish jarayoni bir necha daqiqalarda amalga oshiriladi. O'z o'rnila ushbu qulaylik nafaqat inson omilini kamaytiradi balki har bir tranzaksiyaga xizmat ko'rsatish uchun ketadigan vaqtini tejaydi, shu bilan birga tijorat banklaridagi jarayonlarni optimallashuviga xizmat qiladi;
3. Mijozlar uchun qulay bank xizmatlarini taklif etishga imkon beradi;
4. Tranzaksiyani kuzatish imkoniyatini, ya'ni uning shaffofligini ta'minlaydi;
5. Barcha tranzaksiyalarni 24/7 rejimida amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi;
6. Eng asosiysi, tijorat banklari tomonidan kutilayotgan bir yillik 12,7 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'larni tejashga erishiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, xorijiy valyutadagi tezkor to'lov tizimini joriy etishdan kutilgan natija, mijozlar uchun qulay bank xizmatlarini taklif etishga, to'lovlarni 24/7 rejimida amalga oshirishda, mijozlarning bank xizmatlaridan qoniqish darajasini oshishida, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning masalalarini operativ xal qilishda, tranzaksiyalar holatini real vaqt rejimida kuzatib borishda va eng asosiysi tijorat banklarining operatsion xarajatlarini tejashga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3945-son 19.09.2018 yilgi "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 01 noyabrda O'RQ-578-son bilan qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" Qonuni.
3. Brett King Bank Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. 2018, Marshall Cavendish International (Asia) Pre Ltd
4. <https://cbu.uz/oz/payment-systems/history/>
5. <https://cbu.uz/oz/payment-systems/interbank-calculations/>
6. <https://telegra.ph/Markazij-bank-Anor-tezkor-t%D1%9Elovlar-tizimini-tazhribatari%D2%9Basida-ishga-tushirdi-02-20>
7. <https://cbu.uz/oz/payment-systems/remote-banking-services/>